



**Qulay ekologik muhit –
toza yer, toza havo,
toza suv demak!**

2-betda o'qing ➤



Maqolalardagi xatoliklar

8-betda o'qing ➤

INSON va qonun

2023-YIL
30-MAY
SESHANBA
№ 21 (1381)
www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari

**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**

"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

"Ustozlarni yod etib..."



Hadisi sharifda aytiladiki, "Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Payg'ambarlar dinor yoki dirham emas, balki ilmni meros qilib qoldirganlar".

Hazrat Alisher Navoiy esa shunday lutf qiladilar: "Birovkim qilsa olimlarga ta'zim, Qilur go'yoki Payg'ambarga ta'zim".

Darhaqiqat, donishmand xalqimiz azal-azaldan ilmni bu dunyoda ham, oxiratda ham izzat va sharaf keltiradigan bebaho xazina deya qadrlagan. El orasida umrini ilm-ma'rifat rivojiga bag'ishlab, shogirdlar tarbiyalagan ustoz olimlarga barcha zamonlarda yuksak ehtirom ko'rsatilgan. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fanning, olimlari ustozlarning qadri yuksalib bormoqda, butun umr ma'rifat mayog'ini baland tutgan fan fidoyilarining xotirasini abadiylashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Xalqimizning ma'naviy olamini, milliy g'urur-iftixorini yuksaltirish yo'lida unutilmas xizmat qilgan ulkan olimlarimizning xotirasini abadiylashtirish, ilmiy merosini chuqur o'rganish, ularni yoshlarimizga yetkazish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir".

Davomini 3-betda o'qiydiz ➤



**Imkoniyat va imtiyoz ortmoqda
ammo bu – jahon tajribasiga
yetdik degani emas**

5-betda o'qing ➤



**Ijarachining roziligi bo'lmasa,
kvartira xususiyashtirilmaydi**

6-betda o'qing ➤

MAS'ULIYAT, FIDOYILIK VA SAMIMIYAT UYG'UNLIGI



Hamkasbimiz Faxriddin Qo'ldoshev adliya tizimida faoliyat boshlaganiga 25 yil to'ldi!

Xalqimizda daraxt bir joyda ko'karadi, degan ibratli gap bor. Kattalar ko'pincha yoshlarni sabrga o'rgansin, bir jamoada ishlab ketsin, deb shu gapni aytib, maslahat berishadi. Bu bejiz emas, albatta. Xalq bilib aytganidek, bir kasbda, bir tizimda ko'p yillar halol mehnat qilib, kasbidan baxt topganlar ko'p oramizda. Faxriddin Qo'ldoshev ham ana shunday o'z kasbining fidoyilaridan biridir.

Davomini 4-betda o'qiydiz ➤



Ta'limga baxshida umr

7-betda o'qing ➤

2 JARAYON

**Oilamiz tinch bo'lsin!
Bu – yangi Konstitutsiyada
kafolatlangan**

Prezidentimizning “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!” – degan fikrlaridan andoza olib, Konstitutsiyamizning “Oila” bobi qayta ko'rib chiqildi va to'ldirildi.

Milliy an'analimizga ko'ra oilaga, odob-axloq va farzand tarbiyasiga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. Buning tasdig'i “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan maqolda o'z aksini topgan.

Xalqimizning yoshi ulug'lar azal-azaldan o'zgalarning axloqsizligiga nisbatan beparvo bo'lmay, o'z o'rnida tanbeh berib, to'g'ri yo'lga boshlagan. So'nggi yillarda yurtimizda sharqona mahalla institutini rivojlantirish, oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, Yangi Konstitutsiyaga:

“Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Dir. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi” kabi normalarning kiritilishi rivojlangan davlatlar uchun ham namuna bo'lishiga shubha yo'q.

Bosh qomusimizga ushbu o'zgartishlarning kiritilishi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan bir qancha vazifalarni davlat to'g'ridan-to'g'ri o'zining zimmasiga olganidan dalolat beradi.

Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiylikni ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasl qanday inson bo'lib

yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligi tan olishimiz kerak.

Bu borada ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): “Biron-tangiz o'z farzandlarini tarbiya-talim o'rgatmasa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir”, – deya marhamat qilganlar.

Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Payg'ambarimiz (s.a.v.): “Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir”, – deb marhamat qilganlarida, o'g'il va qiz farzandlarimizga ilm olish uchun barobar sharoitni ta'minlash kerakligini nazarda tutganlar.

Darhaqiqat, farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq bo'lib kamol topsin va hayotda o'z o'rniga ega bo'lsin.

Hasanjon NASIMOV,
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

QULAY EKOLOGIK MUHIT – TOZA YER, TOZA HAVO, TOZA SUV DEMAK!

Dunyoda iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi, havoning ifloslanishi kabi ekologik muammolar yechimi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda fuqarolarning sog'lom va yashash uchun qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, mazkur huquqni Konstitutsiya darajasida mustahkamlash davr taqozosi edi.

Yangi Konstitutsiyaning IX bobida fuqarolarning ekologik huquqlari ham o'z aksini topdi. Jumladan, 49-moddada fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi hamda atrof-muhitning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi kafolatlandi. Mazkur huquq insonning yashash huquqidek ajralmas, uzviy huquqini ifodalab, qulay atrof-muhit tushunchasi aholi uchun sog'lom, toza tabiatni anglatadi. Fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi deganda, inson sog'lom yashaydigan darajadagi toza atrof-muhit tushuniladi. Bu aholi uchun toza yer, toza havo, toza suv degani.

Ushbu sohada bugungi kunda mamlakatimizda 5 mingdan ortiq ekologik normativlar mavjud. Yangi Konstitutsiyada ham fuqarolarning ekologik axborot olish huquqi belgilandi. Bu esa, aholi o'zi yashaydigan hududdagi atrof-muhit holati, undagi o'zgarishlar haqida ma'lumotga ega bo'lish huquqini kafolatlaydi. Jumladan, ishlab chiqarish va sanoatning o'sishi sababli mamlakatimiz shaharlaridagi atmosfera havosi so'nggi yillarda 3-4 baravar ifloslandi. Yerlarning noqonuniy olib qo'yilishi yoki “snoslar” yuzasidan aholining noroziligi oshdi. Yangilangan Konstitutsiyaning 49-moddasiga ko'ra, davlatning fuqarolarning ekologik axborot olish huquqini ta'minlash va shaharsozlik

hujjatlarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi yuzasidan majburiyatlarini kengaytdi.

Keyingi 6-7 yil ichida ushbu yo'nalishda ham mamlakatimizda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan Shaharsozlik kodeksiga yangi boblar – Shaharsozlik faoliyati sohasidagi jamoatchilik nazorati (6-bob) hamda Shaharsozlik faoliyatida yer munosabatlariga (11-bob) oid normalar kiritildi. Endilikda davlat ehtiyojlari uchun emas, faqat jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari olib qo'yilishi belgilandi. Bunday holatda investor avvaldan mulkdorning roziligini olib, kompensatsiya to'lovini 100 foiz qoplagandan keyingina belgilangan loyihani amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 49-moddasida davlat mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlashi zarurligi qayd etildi. Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur norma bugungi kunda mamlakatimizda Mazkur norma tabiatdagi o'zgarishlar tufayli ro'y berayotgan turli ekologik ofatlar yoki texnogen talofatlar yuz berayotgan hozirgi davrda ayniqsa muhim bo'lib, ushbu qoida aholining bunday holatlardan himoyalani shu huquqini ham kafolatlaydi. Mazkur konstitutsiyaviy me'yor mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasida 2026-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish, iqtisodiy

yot tarmog'idan chiqayotgan zararli gaz miqdorini 10 foiz kamaytirish kabi maqsadlarga erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 2030-yilgacha 15 ming MvTga yetkazishga asos bo'ladi.

Konstitutsiyaning 68-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo'yilgan. Mazkur norma shu vaqtga qadar amalda bo'lgan Konstitutsiyaning 55-moddasi mazmuniga mos bo'lib, ushbu qoida mamlakatimiz hududidagi barcha tabiiy resurslarning O'zbekiston xalqi mulki ekanligini, ulardan faqat xalq manfaatlarini yo'lida foydalanish zarurligini, shuningdek O'zbekiston aholisi tabiiy resurslardan foydalanishda (xorijiy fuqarolarga nisbatan) ustun huquqqa egaligini anglatadi.

68-modda quyidagi tahrirda to'ldirildi: “Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.” Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslar, xususan, yer ham bozor munosabatlari obyektiga aylanadi. So'nggi yillarda mazkur yo'nalishda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini yakka tartibda uy-joy qurish hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun bino-inshoot qurish maqsadida xususiy lashtirish tartibi joriy qilindi. Yer uchastkasini uning muhofazasi ta'minlangan holda xususiy lashtirish

irish mumkinligining konstitutsiyaviy norma darajasida belgilanishi yer uchastkasini bozor kapitaliga aylantirish imkonini beradi. Mazkur qoida yer uchastkasi mulkdoriga yerdan maqsadli foydalanish, uning muhofazasini ta'minlash majburiyatini ham belgilaydi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 115-moddasida Vazirlar Mahkamasi atrof-muhit va inson salomatligi borasidagi vazifalari kengaytirildi. Vazirlar Mahkamasi zimmasiga bunday vazifaning konstitutsiya darajasida yuklanishi O'zbekiston hukumati har qanday vaziyatda aholini himoya qilish majburiyatini anglatadi.

Konstitutsiyaning 123-moddasida belgilangan norma viloyatlar, tuman, shahar hokimlarining hududlarni rivojlantirishda barcha omillarni, jumladan ekologik omillarni ham inobatga olishi zarurligini anglatadi. Yangi Konstitutsiyaning 123-moddasiga ko'ra, “hokimlar hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.” Mazkur normaning belgilanishi mamlakat hududlarini – tuman va shaharlarni barqaror rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu qoida ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirishda, energetika, transport, qurilish kabi sohalar uchun yer ajratishda hududning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, mazkur jarayonda atrof-muhit va boshqa fuqarolarning manfaatlariga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish zaruratini belgilaydi.

Go'zal UZOQOVA,
yuridik fanlar doktori, dotsent,
Dildora UMARXANOVA,
yuridik fanlar doktori, professor

Davomi. Boshlanishi 1-betda

IBRATLI YODNOMA

Yaqinda nashr etilgan "Ustozlarni yod etib..." xotira kitobi ham ana shunday ezigu maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatli. Kitobda O'zbekistonda davlat va huquqning rivojlanishiga, huquqshunoslik faniga va ushbu yo'nalish bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan 64 nafar olimning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar ifodalangan.

"Ustozlarni yod etib..."

Kitobni mutolaa qilish asnosida birinchi o'zbek ayol akademigi Xadicha Sulaymonova, mam-lakatimizning yirik huquqshunos olimlari, akademiklar – Otaboy Eshonov, Anvar A'zamxo'jayev, Shavkat O'razayev, Hojiakbar Rahmonqulov, Soli Rajabov va boshqa fidoiylar haqida qimmatli ma'lumotlar bilan tanishasiz.

O'zbek huquqshunosligining yirik namoyandalari, ko'plab huquqshunoslarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatgan ustoz olimlarning ilmiy merosi haqida o'qir ekansiz, inson har lahzasini qadrlasa va o'chovli umrini mazmunli o'tkazsa, ilm-fanning naqadar yuksak cho'qqilariga chiqqan olishi mumkinligiga, uning ilmiy merosidan jamiyat va davlatga qanchalar katta naf yetishiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Ushbu xotira kitobini "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist", yuridik fanlar doktori, professor M'rzayusup Rustambayev rahbarligidagi mualliflar jamoasi – professor Farhod Tohirov, professor

Muborak Usmanova hamda dotsent Muqaddas Ahmedova nashrga tayyorlagan. Mualliflar kitob qo'l-yozmasini umumiy tahrirdan o'tkazishimni so'rashganda buni mam-nuniyat bilan qabul qildim. Tahrir mobaynida o'zimning ayrim taklif va mulohazalarimni ham bayon etdim. Kitob nashrida ularni inobatga olganliklari uchun mualliflarga samimiy minnatdorlik bildiraman. Ensiklopedik tuzilishga ega bo'lgan "Ustozlarni yod etib..." xotira kitobi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida nashr etildi.

Xotima o'rinda, hazrat Alisher Navoiyning quyidagi misralarini keltirmoqchiman:

"Agar shogird shayxulislom, agar qozidir,

Magar ustoz andin rozi – Tangri rozidir".

Ushbu mo'jaz, ammo qimmatli yodnomada xotirlangan ustoz olimlarning ruhlari shod, oxiratlari obod bo'lsin!

Akmal SAIDOV,
akademik

Mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Bosh qomusimizning 1992 yildan buyon o'zgarishsiz kelayotgan 1-moddasiga ham qo'shimchalar kiritildi. Ya'ni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ko'ra, mamlakatning siyosiy-huquqiy maqomi sifatida 3 ta – "huquqiy davlat", "ijtimoiy davlat" va "dunyoviy davlat" degan tushunchalar qo'shimcha qilingi.

O'ZBEKISTON – HUQUQIY, IJTIMOY VA DUNYOVIY DAVLAT

Ta'kidlash joizki, huquqiy davlatda qonun oldida barcha teng va hisobdor bo'lib, hech kim qonundan ustun turmaydi. Butun davlat hududida qonun ustuvorligi, hokimiyatlar vakolatining bo'linishi, shaxs va davlatning o'zaro mas'ulligi, inson huquqlari va erkinliklarining himoyalaniishi ta'minlanadi.

Ijtimoiy davlatda esa asosiy e'tibor moddiy boyliklarni har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish hamda muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq taqsimlashga qaratiladi. Bunda aholining ehtiyojmand qatlamni va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ishsizlikka qarshi kurashish, aholining bandligi hamda daromadlari doimiy o'sishini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va ma'naviy-madaniy rivojlanish, ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali farovon turmush sharoitini yaratish muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, respublikamizda so'nggi olti yilda ijtimoiy davlatning barcha asosiy talablari amalda qo'llanildi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonni ijtimoiy davlat, deb e'lon qilish uchun

asoslar yaratildi.

Dunyoviy davlatda din hokimiyat va boshqaruvdan ajratilgan. Boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydi. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburlov kuchi bilan o'rnatilmasligini, ularning davlatdan ayri ekanligini tavsiflaydi. Binobarin, O'zbekiston respublika sifatida tashkil etilganidan buyon dunyoviy taraqqiyot yo'lidan og'ishmay kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsada, jamiyatdan ajratilmaydi.

Ijtimoiy davlat modeli Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvesiya, Italiya, Belgiya, Daniya, Finlandiya, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya, Avstriya, Gresiya, Yaponiya, Niderlandiya, Shveysariya, AQSh kabi davlatlarda qo'llanilmoqda. Huquqiy va dunyoviy davlat tushunchasi esa Germaniya, Ispaniya, Italiya, AQSh va Fransiya kabi davlatlar Konstitutsiyalarida ifodalangan.

Iskandar GENJAYEV
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

ADVOKAT HUQUQI ORTMOQDA



Prezidentning 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 142-moddasi talablaridan kelib chiqib jinoyat protsessida himoyachining maqomini kuchaytirish maqsadida, unga quyidagi qo'shimcha huquq va vakolatlar berildi.

Jumladan, surishtiruv va dastlabki tergovda himoyachi tomonidan istalgan vaqtda jinoyat ishini qo'zg'atish va tugatish haqidagi qarorlardan nusxa olish;

ko'rsatmalarni oldindan mustahkamlab qo'yish (deponirovaniye) uchun sudga to'g'ridan-to'g'ri iltimos-noma kiritish;

tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxslarga malakali yuridik

yordamdan foydalanish huquqini kofolatlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv jarayonida himoyachi maqomida ishtirok etish;

ish bo'yicha shartnoma asosida sud ekspertizalari o'tkazilishini va zarur bilimga ega mutaxassislar jalb qilinishini tashkilashtirish;

jinoyat ishi bo'yicha ma'lumotlarga ega shaxslarni so'rovdan o'tkazishda ularning roziligi bilan maxsus texnika vositalaridan foydalanish kabi qator qo'shimcha huquqlar berilishi nazarda tutilmoqda.

Ushbu farmonda Adliya vazirligi, Oliy sud, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi bilan

birgalikda ikki oy muddatda himoyachining huquq va vakolatlarini kengaytirishni, advokat yordamchisi sifatida ish faoliyatini olib borish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini belgilangan tartibda kiritish vazifasi ham yuklatilgan.

Advokatlarga mazkur huquqlarning berilishi jinoyat protsessida ularning huquqlarini kengaytirgan holda jinoyat sudlarida ham tortishuv instituti tamoyilining to'laqonli amalga oshirilishi hamda himoyasi ostidagi shaxslarni to'liq himoya qilishiga qo'shimcha zamin yaratilishi orqali odil sudlovni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

2022-yil 3-avgustda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan edi. Mazkur qonunga muvofiq, advokatlar kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida yana bir qancha huquqlarga ega bo'ldi. Jumladan, iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritilayotganda (jinoyat ishi yuritiluvidan boshqa holatlarda) ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida yoki sud muhokamasi jara-

yonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan ekspertiza o'tkazilishini so'rash, shuningdek, ekspertiza xulosasi ish materiallariga qo'shib qo'yilishini va sud tomonidan ushbu xulosa ishdagi mavjud dalillar bilan birgalikda baholanishini talab qilish huquqi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda mazkur huquqlar (jinoyat ishidan boshqa holatlarda) advokatlarga berilganiga bir yil muddat o'tmagan bo'lsa-da, bu o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda.

Advokat tomonidan tayinlanadigan sud ekspertizaning afzalligi shundaki, bunda advokat shaxsan hal etilishi lozim deb topgan savollarni ekspertlar oldiga qo'yish va ushbu savollar asosida xulosa olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, sudda, aynan jinoyat sudlarida ham tortishuv instituti tamoyilining to'laqonli amalga oshirilishi hamda yanada qo'shimcha dalillarni ortishi orqali odil sudlovni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Maqsudali BOZOROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

4 E'TIROF

Bu insonni tanigan-bilganlar, birga ishlaganlar mas'uliyatligini, samimiyligini, hamkasblar bilan fikrlashib, doimo oldinga intilishini, hayot va ish tajribasini amaliyotda qo'llay bilishini aytib, hurmat bilan tilga olishadi.

Huquqshunoslik yo'nalishida o'qib, 1986-yilda Tojikiston davlat universitetini tamomlagach, u shu yili Surxondaryo viloyat prokuraturasi umumiy nazorat bo'limi inspektori vazifasida ish boshladi. Ikki yil shu yerda ishlab, yig'itlik burchini o'tash uchun Xarkovga harbiy xizmatga ketdi. Vatanga qaytgach, turli korxona va tashkilotlarda huquqshunos bo'lib ishladi. U Surxondaryo viloyati "Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish" uyushmasida, "Parvina" nomli kichik korxonada, "Termizqurilish" aksiyadorlik jamiyatida yurist, "Surxondaryoqurilish" AJ va JK assotsiatsiyasi yuristi va xususiy lashtirish bo'limi boshlig'i lavozimlarida mehnat qildi.

Surxondaryo viloyat hokimligi adliya boshqarmasi katta maslahatchisi, yetakchi maslahatchisi, bo'lim boshlig'i, Surxondaryo viloyati hokimligi adliya boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari vazifasini bajaruvchisi bo'lib ishladi.

Yoshlik shijoati uni yana bilim olishga undadi, oliygoh sari yetakladi. Maliya yo'nalishida o'qib, 2001-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tamomladi.

Adliya tizimida katta tajribaga ega kadr 2006-yildan Adliya vazirligida bosh maslahatchi bo'lib ishlay boshladi, keyinchalik bo'lim boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Shundan so'ng ikki yil Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari lavozimida ishladi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining Qonun hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish va turkumlash shox-basi mudiri, Inson huquqlarini himoya qilish bo'limi boshlig'i lavozimlarida ishladi.

Uzoq yillar vazirlikning Shartnomaviy huquqiy ishlarni nazorat qilish boshqarmasida, Huquqiy targ'ibot va axborot boshqarmasida, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Arxitektura va qurilish, kadastir bo'yicha bosh maslahatchisi, agentlikning Samarqand viloyat boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari lavozimlarida samarali mehnat qildi.

Hayoti davomida hamisha ilimga intilgan, ham o'zining, ham aholining huquqiy bilimlarini oshirishga bel bog'lagan huquqshunos "Adolat" milliy huquqiy axborot markazining Rasmiy nashrlarni tayyorlash va tahrir qilish bo'limini katta ishtiyoq bilan boshqardi. Markazga ishga o'tganidan keyin huquqshunos kadrlar uchun yuridik adabiyotlarni yetkazib berish ishiga ham bosh-qosh bo'ldi. Hozirgi kunda esa respublika miqyosidagi davlat tashkilotlaridan tortib, o'quv yurtlari, xususiy korxonalar va



MAS'ULIYAT, FIDOYILIK VA SAMIMIYAT UYG'UNLIGI

Xalqimizda daraxt bir joyda ko'karadi, degan ibratli gap bor. Kattalar ko'pincha yoshlarni sabrga o'rgansin, bir jamoada ishlab ketsin, deb shu gapni aytib, maslahat berishadi. Bu bejiz emas, albatta. Xalq bilib aytganidek, bir kasbda, bir tizimda ko'p yillar halol mehnat qilib, kasbidan baxt topganlar ko'p oramizda. Faxriddin Qo'ldoshev ham ana shunday o'z kasbi-ning fidoyilaridan biridir.

tadbirkorlar bilan ham faol hamkorlik o'rnatib, aholining xonadonigacha huquqiy nashrlarning yetib borishi uchun bo'lim jamoasi bilan hamjihatlikda ishlab, markazning Marketing, reklama va obuna bo'limini boshqarib kelmoqda.

Mehnat qilgan elda aziz, deydilar. F. Qo'ldoshev uzoq yillik samarali mehnatlari uchun "Shuhrat" medali sohibi bo'lgan. Ikkinchi darajali adliya maslahatchisi bo'lgan tajribali huquqshunos yaqinda "Adliya a'lochisi" ko'krak nishoni bilan ham taqdirlandi.

F. Qo'ldoshevning yarim asrdan ziyod hayot yo'li, mehnat faoliyati bilan tanishib, bu inson doimo ish bilan band bo'lganini ko'rasiz. Qayerda ishlamasin, fidoyiligi bilan hurmat topganiga guvoh bo'lasiz. Yillar o'tib, u chin ma'noda "Adliya a'lochisi" bo'ldi.

Faxriddin Qo'ldoshevning umr yo'lini bir daraxt umriga qiyoslasak, u hamkasblari yuqorida aytganidek, adliya tizimida samarali mehnati bilan hurmat topdi, kasbdoshlari bilan munosabatda samimiyligi bilan qancha yaxshi ishlarga bosh bo'ldi. Ta'bir joiz bo'lsa, nihol edi, shu tizimda tomir otdi. Uning kasbiga bo'lgan mehri, mehr daraxti gulga kirib, bugun o'z mevasini bermoqda.

Furqat TOJIYEV,
Adliya vazirligi boshqarma boshlig'i:

– Faxriddin aka haqida to'xtamasdan soatlab gapirish mumkin. Chunki bunday fazilatli insonlar bilan har doim ham duch kelavermaysiz. Kasbiy tarafdin qarasangiz – kuchli intizom, yuqori bilim-salohiyat, so'nmas qat'iyat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ajabto'vur shijoat va albatta ulkan tajriba balqib turadi. Insoniy tarafdin esa xushfe'l, ochiqko'ngil, doimo yordamga shay. Hech qachon kibrga berilganini ko'rmadim. Umrilari uzoq bo'lsin. Yangamiz bilan qo'sha qarib, baxt taxtidan tushmasinlar, hech.

Qorjov CHORIYEV,
Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi Faxriylar kengashi raisi:

Faxriddinni adliya boshqarmasiga ishga kelganidan beri juda yaxshi bilaman. U benazir, o'xshashi yo'q, samimiy inson. Bir so'z bilan aytganda, u haqdagi fikrim xuddi toza suvday juda tip-tiniq. U dilida g'ubori yo'q, toza ko'ngil odam. O'rni keldi, aytсам bo'lar, Faxriddin eng yaxshi ko'rgan shogirdim. O'z ishini ustasi, ishiga mas'uliyatli yig'it. Shuning uchun qayerda ishlasa ham, hurmat topdi, o'rnini topdi.

U bilan ancha vaqt birga ishlaganmiz. Har doim ham samimiyligi bilan hamkasblarining hurmatini joyiga qo'yadi. Topshiriqlarni o'z vaqtida qiladigan, tashabbuskor xodim. Tajribali yurist, muhimi, javobgarlikni o'ta tushunadigan inson. Shunday yaxshi fazilatlar har bir yoshda, har bir odamda bo'lsa edi.

Shokir SAIDOV,
YuMOM direktorining birinchi o'rinbosari:

– Men Faxriddin Qo'ldoshevni 20 yildan ortiq vaqtdan buyon taniman. Mamlakatimizda shartnoma intizomini mustahkamlash, shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishi va ularga belgilangan majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligi tizimida Shartnomaviy-huquqiy ishlarni nazorat qilish boshqarmasi hamda hududlarda tegishli bo'limlar tashkil etilganidan boshlab mazkur bo'limda faoliyat ko'rsatib kelganidan bilaman. O'sha vaqtda men Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasida, F. Qo'ldoshev esa Surxondaryo viloyatida ishlab, yaqindan bir-birimizni taniganmiz. Adliya organlariga yuklatilgan bu yangi vazifani amalga oshirish uchun ko'p maslahatlarini olganman. Keyinchalik men vazirlikda ushbu boshqarmada ishlab yurganimda ham F. Qo'ldoshev rahbarlik qilayotgan hududiy bo'lim eng ilg'or bo'limlardan biri sifatida tanilgan. Hozirda ham F. Qo'ldoshev bilan doimiy turli masalalarda fikrlashib turamiz.

Davlatnazar MATRASULOV,
Qibray tuman adliya bo'limi boshlig'i:

– Faxriddinni taniganimga 25 yilga yaqin vaqt bo'ldi. Bu chorak asr degan gap, bir insonni bilish uchun oz muddat emas. Shuncha yilda qayerda ishlamasin, samimiyligi, kamtarligi o'zgarmadi. Odam bunday tabiiy insoniy xislatlarini asray bilishi ham katta gap hozirgi kunda. Ustozlarni hech unutmaydi. U juda oqibatli, oliyjanob inson. Ustoz, deb hozirgacha hol-ahvol so'rab turadi bizdan.

Insoniy fazilatlar haqida gapiradigan bo'lsam, juda kamtarin inson. Ishiga mas'uliyatli, fidoyiligi uchun vazirlikka ishga taklif qilganmiz. Adliya vazirligida ancha vaqt birga ishladi. Orada Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasida ham ishladi, yana Toshkentga ishga qaytdi. Ish jarayonida qo'l ostidagi xodimlariga ham, rahbariyatga ham birday munosabatda bo'ldi. Eng muhimi, Faxriddin insonlar bilan muloqotga kirishganida boyligiga, mansabiga, kimligiga qaramaydi, hammaga birday mehri, muomalali.

Oilada ham tartibli, farzandlari juda tarbiyalil. Kelinimiz ham shu sohada o'qigan, notarius bo'lib ishlaydi. Bu ziyoli oilaga, ochig'i, havas qilaman.

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi Faxriddin Qo'ldoshevni ushbu qutlug' sana bilan qizg'in muborakbad etadi.



PARLAMENT VA YOSHLAR

Yoshlarimiz ertangi kunning yetakchilaridir. Ular shaxsiy fikrini, taklif va mulohazalarini dadil aytib, global muammolarni hal qilish uchun sifatli yechimlar bilan chiqa oladi. O'zbekiston parlamentiga yoshlarning ta'sirini yanada kuchaytirish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?

YOSH TALABINI QISQARTIRISH KERAK

Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasiga ko'ra, saylov kuni 25 yoshga to'lgan, kamida 5 yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, Oliy Majlis Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Yosh chegarasini qisqartirish yoshlarning parlamentdagi o'rnini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Bu boradagi xalqaro tajriba har bir davlatning ichki siyosiy muhitiga qarab o'ziga xos. Dunyo bo'yicha sifatli parlamentarizm siyosatini yo'lga qo'ya olgan Germaniya davlatining Asosiy Qonuni 38-moddasiga ko'ra: "18 yoshga to'lgan shaxs deputat sifatida saylanishi mumkin". Bundaydagi yoshlar miqdori esa (45 yoshdan kichik) 41,98 foizni tashkil qiladi. Fransiya davlati parlamentida esa quyi palataga saylanish yoshi 18, yuqori palataga 24 yosh hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Xalqaro Parlamentlar Ittifoqi ham dunyo bo'yicha parlamentlarda yoshlar sonini ko'paytirish bo'yicha faol targ'ibot ishlarini olib bormoqda. Chunki ipu.com sayti ma'lumotlariga ko'ra, jahon bo'yicha 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning atigi 2 foizga yaqini parlamentda vakil hisoblanadi. Bu esa institutning qonuniyligi va samaradorligiga putur yetkazishi mumkin.

ALOHIDA KVOTALAR AJRATISH ZARUR

Parlamentda yoshlar faolligini oshirishning yana bir yo'li – ular uchun deputatlik va senatorlik saylovlarida alohida kvotalar ajratish bilan belgilanadi. Yoshlarga davlat siyosatini yuritishda bunday imkoniyat yaratish ularning yurtimizdagi vakillik organiga qiziqishini oshiradi. Eng muhimi, yoshlarning parlament faoliyatida faol ishtirok etishiga imkon beradi.

PARLAMENTDA FAOLLIKKA TARG'IB QILISH

Yoshlar har qanday demokratiya asosiy qismidir. Nafaqat ularning siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqi, balki dunyoqarashi, g'oyalari, iste'dodi va kuch-g'ayrati barcha yoshdagi odamlar duch keladigan ko'plab muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, siyosatda va qarorlar qabul qilishda yoshlarning faolligini oshirish hamda parlamentda yoshlar nuqtayi nazarining integratsiyalashuvini kuchaytirish orqali yoshlar ishtirokini qatoriga kiruvchi O'zbekiston uchun juda ham muhimdir.

Feruza ABDUMUTALIYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Maktab barchamiz uchun Vatan, Ona so'zidek aziz va muqaddas kalam. Mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani biz – pedagoglarni yangi maqsadlar sari yetaklayapti. Joriy yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi ham ana shu ulug' maqsad va chuqur islohotlarga mushtarakdir. Ta'limni rivojlantirish uchun birinchi galda o'qituvchilarning sifat tarkibiga e'tibor qaratish, ularning bilimi, saviyasi va albatta mavqeni ham ko'tarish shart.

To'g'ri, bu borada bir qator yangiliklar, imtiyozlarga ega bo'ldik. Masalan, o'qituvchilar tibbiy ko'rikdan o'tish uchun pul to'lamaydi. Maktab direktorlariga ham oylik ustamalar to'lanishi mumkin. O'quvchilari oliy ta'lim muassasalariga ko'p kirgan maktablar rahbariyati rag'batlantiriladi. O'qituvchi bo'lib ishlayotgan xalqaro olimpiadalar g'oliblariga har oy 150 foiz ustama to'lanadi. Pensiya yoshidagi pedagoglar navbatdagi attestatsiyaga jalb etilmaydi. Inklyuziv ta'lim sinflari o'qituvchilariga qo'shimcha ustama to'lanadi. Qishloqlardagi maktablarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib ishlayotgan ayollarga ustama to'lanadi. Sportchi-trenerlarga imtiyozlar beriladi. Ta'lim sifati past maktablarda boshqa hududlardan kelib dars berayotgan o'qituvchilar uchun maxsus ustamalar joriy qilingan. Matematika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlagan professor-o'qituvchilarga pul mukofoti beriladi.



Imkoniyat va imtiyoz ortmoqda AMMO BU – JAHON TAJRIBASIGA YETDIK DEGANI EMAS

Shuningdek, o'qituvchilarning faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik belgilangan. O'qituvchilarni majburiy mehnatga jalb qilish va ortiqcha qog'ozbozlikni cheklashga erishilmoqda. Eng muhimi, bundan buyon, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tuman (shahar) bo'limlariga berilgan maktablar faoliyatini tekshirish va ta'lim sifatini baholash vakolatlari tugatiladi.

Bularning barchasi o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga, millat kelajagi bo'lgan yoshlarning bilimli va salohiyatli bo'lib kamolga yetishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu asoslar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 52-moddasida o'z aksini topgan:

"O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish

hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.


Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi".

Garchi, aynan bu sohada o'zgarishlar va yutuqlarimiz bilan jahon tajribasiga tenglashmasak-da, mamlakatimiz ta'lim tizimi xodimlari hayotidagi bu o'zgarishlar ijobiy samarasini ko'rsatishiga shubha yo'q. Chunki, ta'lim tizimini namunalni yo'lga qo'ya olgani sabab juda qisqa muddat ichida dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin olgan davlat mamlakatlarni barchamiz yaxshi bilamiz.

Shoiraxon KARIMOVA,
Denov tumanidagi 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

6 BILASIZMI?

BILASIZMI?



Uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa...

– Qanday holatlarda nikohdan ajratish FHDYo orqali tomonidan amalga oshiriladi?

Z. BOTIROVA,
Toshkent shahri

– Oila kodeksining 42-moddasida er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin nikohdan ajratishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi.

Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotining moddiy ta'minat berish to'g'risida yoki ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo bo'lgan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Shuningdek, ushbu kodeksning 218-moddasiga asosan, er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashlari shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joydan qat'i nazar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini ariza berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

Shu bilan birgalikda mazkur kodeksning 219-moddasida er-xotindan birining arizasi bo'yicha nikohdan ajralishni qayd etish tartibi ham belgilangan bo'lib, unga asosan, er-xotindan birining arizasi bo'yicha nikohdan ajralishni qayd etish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga quyidagilar taqdim etiladi:

- er (xotin)ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yo'qolgan deb topilganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori;
- er (xotin) uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko'chirma, shuningdek sudlangan er (xotin)ning o'rtadagi bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo'qligi to'g'risidagi tilxat.

Yuqoridagi belgilangan tartiblarga asosan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan nikohdan ajralishni qayd etish amalga oshiriladi.

Savolga Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi Ilhomjon YUSUPOV javob berdi.

Inson boshiga ish tushganida o'zini qo'yarga joy topa olmaydi. Ayniqsa, farzandi yo'ldan adashib, ozodlikdan mahrum bo'lsa, o'zini o'tga-cho'qqa urishga ham tayyor bo'ladi. Nima qilib bo'lsa ham unga yordam berishni istaydi. F. Ravshanov ham (ism-shariflar o'zgartirilgan) o'g'li Sardor sudlanib qamoqqa tushganida boshidan shunday og'ir sinovlarni o'tkazdi.

"Qora kursi"ga o'tirgan oqlovchi

Kimdir unga "Yaxshi advokat topsangiz appellyatsiya ishi ko'rilib, o'g'lingiz ozod etilishi mumkin", deb qoldi. Bu gapdan so'ng otaning tinchi buzildi. So'roqlab "Shokirov Akbar Olimovich" advokatlik byuroasi advokati Xayriddin Odilovni topdi.

Advokat jinoyat ishlari bo'yicha Qorovulbozor tuman sudining hukmi bilan sudlangan S. Ravshanovning otasiga mazkur jinoyat ishi bo'yicha sud qaroridan shikoyat qilish va appellyatsiyada qayta ko'rilishi orqali yuqori lavozimdagi mansabdor shaxslarning "yordami" bilan o'g'lini ozodlikka chiqarishga va'da berdi.

– Xudo xohlasa o'g'lingizni chiqaramiz, – dedi u ishonch bilan.

– Baraka toping. Mendan nima xizmat, nima qilishim kerak? – deydi najotkor emas, firibgarining tuzog'iga tushganini bilmagan sodda ota.

– Shartnoma tuzamiz. Hammasi qonuniy bo'ladi, – deya o'z so'zini yana ishonchliroq mustahkamlaydi X. Odilov.

1993-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasining "Davlat uy-joy fondini xususiyashtirish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Mazkur qonun mamlakatimiz hududida davlat uy-joy fondini xususiyashtirishning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy asoslarini va tartibini belgilab beradi. Bundan tashqari, xususiyashtirish sohasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

IJARACHINING ROZILIGI BO'LMASA, KVARTIRA XUSUSIYASHTIRILMAYDI

Xususiyashtirish sohasidagi munosabatlar davlat va xususiyashtirish subyektlari o'rtasida paydo bo'ladi. Chunki xususiyashtirishning asosiy maqsadi bu ommaviy mulkning xususiy mulkka o'zgarishi hisoblanadi.

Uy-joylarni xususiyashtirish nafaqat aholi, balki davlat uchun ham zarurdir. Bu mavjud uy-joy fondini saqlash va ulardan foydalanishni yaxshilaydi. Xususiyashtirish turar-joy binolariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni yuqori sifat darajasiga ko'tarish imkonini beradi.

Xususiyashtirilayotgan turar joyda yashayotgan barcha ijarachilarning roziligi bilan ular egallab turgan turar joy xususiyashtirilishi mumkin. Bunda xususiyashtirishning har bir ishtirokchisida (ijarachida) kvartiraga nisbatan umumiy hissali mulk huquqi vujudga keladi. Xususiyashtirish subyektlariga davlat uy-joy fondini xususiyashtirish huquqi faqat bir marta beriladi.

Xususiyashtirilgan turar joyda uni xususiyashtirilishiga rozilik bergan uy egasining boshqa oila a'zolari yashayotgan bo'lsa, ularning hammasi shu turar joyning egasi hisoblanadi, egalab kelinayotgan turar joy esa xususiyashtirish natijasida umumiy mulkka aylanadi. Bu qoida turar joy egasining vaqtincha bu yerda yashamayotgan oila a'zolariga ham tatbiq qilinadi.

Qonunga muvofiq ikki yoki undan ortiq ijarachi yashab turgan kvartiralar barcha ijarachilarning roziligi bo'lmasa, xususiyashtirilishi mumkin emas.

Uy-joy kodeksining 32-moddasiga ko'ra, xususiyashtirilgan kvartira yoki uy mulkdorining voyaga yetgan oila a'zolari va uy-joyning xususiyashtirilishiga rozilik bergan shaxslar ham ularning umumiy mulki bo'lmish xususiyashtirilgan kvartira yoki uga nisbatan qonunda belgilangan tartibda teng huquqlarga ega bo'ladi va teng majburi-

SUD OCHERKI

Advokatlik litsenziyasi to'xtatilgani esiga tushib, ko'ngli biroz g'ashlanadi-yu, ammo sir boy bermaydi. Ishni o'z zimmasiga olgan litsenziyasiz advokat xizmat haqi uchun dastlab 100 AQSh dollari oladi. Ish xamirdan qil sug'urgandek ketayotgani uchun yana 10 ming AQSh dollarini soliq idorasida ishlaydigan, har ikki tomonga ham tanish bo'lgan Muhiddin ismli shaxs orqali olib cho'ntakka uradi.

Sudda atigi bir marta ishtirok etib, boshqa qorasini ham ko'rsatmadi. Shundan so'ng mijozi – F. Ravshanov huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza berganidan xabar topib, qo'lga kiritilgan pulni qaytarmaslik uchun go'yoki 100 million so'mlik advokatlik xizmati ko'rsatildi, deb o'zini oqlamoqchi bo'ldi. O'g'li Sardorning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida F. Ravshanov bilan tuzilgan bitimga soxta summani kiritib, rasmiy hujjatni ham soxtalashtirdi, turli bahonalar bilan qochib yurdi. Ammo oqlovchi bo'lsa ham o'z qora qilmishini oqlay olmadi. F. Ravshanovdan olgan 10 ming AQSh dollarining 8 ming 900 dollarini qaytarib berishga majbur bo'ldi. Ammo...

Jinoyat jazosiz qolmaydi. X. Odilov Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybdor deb topildi. Jinoyat ishlari bo'yicha Olot tuman sudining hukmiga ko'ra tayinlangan jazolarni qisman qo'shish yo'li bilan X. Odilovga uzil-kesil uch yil muddatga mansabdorlik va moddiy javobgarlik ishlarida ishlash huquqidan mahrum qilinib, besh yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

Xayri AZIZOV,

G'ijduvon tuman prokurorining katta yordamchisi

yatlarni bajaradi. Shu sababli, er (xotin) va oila a'zolari, uy-joyni xususiyashtirilishiga rozilik bergan shaxslar umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchilariga aylanadi.

Shu bilan birga, ushbu qoida er-xotinlardan biri ro'yxatdan o'tmagan va turar-joy binolarini xususiyashtirishga rozi bo'lmagan holatlarga nisbatan qo'llanilmaydi, garchi u shu joyda yashagan bo'lsa ham. Bunday hollarda Oila kodeksining 23-moddasi talablariga asosanib, er-xotinning umumiy birgalikdagi mulki tamoyilining qo'llanilishi noto'g'ri.

Oldi-sotdi, ayirboshlash va hadya shartnomalari amalga oshirilgandan so'ng, shuningdek, mulkchilik huquqi merosxo'rlik tartibida o'tgandan so'ng, boshqalarga berish yoki meros qilib qoldirish vaqtidan qat'i nazar, kvartira yoki uy (ularning bir qismi) xususiyashtirilgan uy-joy maqomini yo'qotadi.

Notarial tartibda rasmiyashtirilgan, oldi-sotdi, ayirboshlash va hadya qilish shartnomasi, shuningdek, qonun bilan belgilangan tartibda berilgan merosxo'rlik huquqi to'g'risidagi guvohnoma ilgari xususiyashtirilgan sotib olingan uy-joyga egalik qilish huquqini beruvchi hujjat hisoblanadi.

Dilyora AMINOVA,
Bekzod ISKANDAROV,
Sudyalar oliy kengashi
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi
tinglovchilari

Yaxshi insonlarni xotirlash, ularning bosib o'tgan hayot yo'llariga nazar solish ibratli amallardan biri. Joriy yilning 23-may kuni Toshkent davlat yuridik universitetida yuridik fanlar doktori, professor Zayniddin Islomovning xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan "Huquq nazariyasi va tarixining yuridik kadrlar tahliliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham ana shunday xayrli tadbir, ajoyib yodnoma bo'ldi. Ushbu anjumanda respublika yuridik jamoatchiligi vakillari, xorijlik olimlar, Z. Islomovning hamkasblari, shogirdlari va oila a'zolari ishtirok etdi.

Ta'limga baxshida umr



Zayniddin Muhitdinovich
1938-yil 30-aprelda Toshkent
shahrida dunyoga kelgan.
1956-1961-yillarda Toshkent
yuridik institutida tahsil olgan.

Institutni tamomlagach mehnat faoliyatini Qoraqalpog'iston avtonom Respublikasi ilmiy-texnika kutubxonasi direktori vazifasidan boshlagan. 1962-yilda o'z mutaxassisligi bo'yicha - avtonom respublika davlat arbitrajining arbitri sifatida faoliyat olib borgan. 1963-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmasi kengashida Ommaviy-tashkiliy bo'linma instruktori vazifasida mehnat faoliyatini davom ettirgan. Zayniddin Muhitdinovich

ushbu vazifani ado etish barobarida huquqshunos sifatida kasaba uyushmalari faoliyatining huquqiy asoslari, ushbu tashkilotning fuqarolar mehnat huquqlarini ta'minlashdagi o'rni, shuningdek ayrim mavjud muammolarni chuqur o'rganigan va tegishli amaliy tajribaga ega bo'lgan. Bo'lajak olim, faoliyati bog'liq bo'lgan kasaba uyushmalarini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yanada chuqurroq o'rganishga qaror qilgan va shu maqsadda u Fanlar Akademiyasining Falsafa va huquq ilmiy tekshirish instituti huzuridagi aspiranturaga kirib, ilmiy izlanishlar olib borgan. 1972-yilda Z. Islomov "Kasaba uyushmalarining davlatni boshqarishda ishtiroki" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Ilm yo'lini tanlagan ustoz 1991-yili doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, fan doktori ilmiy darajasini olgan.

Z. Islomov ilmiy, o'quv ishlari bilan bir qatorda respublika ijtimoiy hayotida ham faol ishtirok etgan. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolikka qabul qilish va afv masalalari bo'yicha komissiya a'zosi, Oliy sud ilmiy-maslahat Kengashi a'zosi, Respublika Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq instituti hamda Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini olish bo'yicha ixtisoslashgan kengash a'zosi sifatida samarali faoliyat olib borgan.

Olimning ilmiy faoliyati juda sermahsul bo'lib, u yuzga yaqin asarlar - monografiya, ilmiy maqola, risola, darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifidir. Z. Islomovning, ayniqsa, "Davlat va huquq: umumnazariy masalalar. Davlat nazariyasi", "Jamiyat. Davlat. Huquq", "Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga", "Hokimiyat muammosi: uni tushunish, ahamiyati va ijtimoiy vazifasi", "Yurisprudensiya o'tmishi va buguni" kabi asarlarida zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb masalalari O'zbekiston voqealari asnosida chuqur tahlil etilganligi bilan ahamiyatli bo'lib, jumladan, ushbu asarlarda davlat va huquqning o'zaro uzviy bog'liqligi, davlat hokimiyatining huquq bilan cheklanishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati, inson huquqlari kabi masalalar amaldagi qonunchilik va mamlakatimizda kechayotgan islohotlar silsilasida chuqur ilmiy tadqiq etilgan. Bugungi kunda talabalar olimning ilmiy ishlari va darsliklaridan unumli foydalanmoqda.

Fidoyi olimning yuridik fan va yuridik ta'lim hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki o'z vaqtida davlatimiz tomonidan munosib baholangan, 2004-yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

Bugun benazir ustoz oramizda yo'q. Zayniddin Muhitdinovich 2017-yilda vafot etgan. Uning yorqin xotirasi do'stlari, hamkasblari, shogirdlari va yaqinlari qalbida doimo yashaydi.

Mavlyuda AXMEDSHAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori

Asli Toshkentda tug'ilib, Samarqandda hayot kechirgan Farida Ziyamuhamedova fidoyi hamyurtlarimizdan biri edi. "Edi" deyishimizning boisi yaqinda viloyat jamoatchiligi Farida Fayzullayevnadan judo bo'ldi.



Ayollik nafasati va RAHBARLIK SALOHİYATI

U 1940-yilning 5-iyulida shifokor Fayzulla G'ulomov oilasida tavallud topgan. Onasi Farogat opa esa garchi uy bekasi bo'lsa-da, juda ma'rifatparvar, oqila ayol bo'lgan. Qahramonimizning o'quvchilik davrlari ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki o'n yilliklarga to'g'ri kelgani bois mamlakatda qurilish sohasi jadal sur'atlarda rivojlanayotgan edi. Binobarin, u 1957-yilda o'rta maktabni tamomlagach, Toshkent politexnika institutiga o'qishga kiradi. Oliygo'na tugatgach, mohir quruvchi bo'lib yetishadi. Natijada mehnat faoliyatini 1962-yilda Kattaqo'rg'on shahar suvsozlik idorasida katta muhandislikdan boshlaydi. Ammo yosh kelinchak uchun bu mas'uliyatli va mashaqqatli ish oson bo'lmagani aniq. Shuning uchun bo'lsa kerak, oradan 5 yil o'tgach, Farida opa Samarqand arxitektura va qurilish institutiga ishga o'tadi. Bu yerda avval katta o'qituvchi, so'ng kafedra mudiri lavozimlarida pedagogik va ilmiy faoliyatini davom ettiradi. Undagi tajriba va ishini tashkil etish salohiyatini ko'rgan mutasaddilar 1976-yilda olima ayolni Samarqand viloyat qurilish boshqarmasiga ishga taklif etishadi.

E'tirof etish kerak, F. Ziyamuhamedova mazkur tashki-

lotda ham o'ziga bildirilgan ishonchni oqlaydi. Bu esa uning sobiq Bog'ishamol tumani ijroiya qo'mitasi raisi lavozimiga tayinlanishiga turtki bo'ladi. Keyinchalik - 1990-yildan Farida Fayzullayevna viloyat mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi lavozimida ish boshlaydi. 2007-yilda boshliq o'rinbosarligidan nafaqaga chiqadi. Eng muhimi, u qayerdagi ishlarsa, yoshlarga xos g'ayrat-shijoat va halollik bilan mehnat qilgan. Qabuliga kelgan insonlarning ko'nglini to'pa olgan. Zimmasidagi mas'uliyatini Vatan va xalq manfaatidan kelib chiqqan holda chuqur his qilgan. Ayniqsa, AQSh, Fransiya, Gollandiya, Janubiy Koreya singari dunyoning rivojlangan davlatlarida o'z sohasi bo'yicha tajriba orttirgan. Nafaqa davrida esa mahallada oila, xotin-qizlar va bolalar manfaatiga oid masalalarni hal etishda jonbozlik ko'rsatdi.

Bugun F. Ziyamuhamedova oramizda yo'q. Ammo uning onalik mehri, ayollik nafasati, rahbarlik salohiyati va hayotiy tajribalari barcha yaqinlari, shogirdlari, hamkasblariga juda qo'l kelmoqda. Porloq xotirasi minglab qalblarga muhrlanib qoldi.

Irkin ZUBAYDULLAYEV

E'LONLAR

"Advokatura to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasi va Jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining 2022-yil 27-dekabrda hukmi va Qashqadaryo viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati apellyatsiya instansiyasining 2023-yil 4-apreldagi ajrimiga asosan Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 2020-yil 9-oktabrda "Nasaf huquq maslahatchisi" advokatlar hay'ati advokati Tolibov Soxib Tolibovichga berilgan KS 000220-son reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Toshkent viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 17-maydagi 129-um-son buyrug'i bilan "BEST ADI ADVOKAT" advokatlik byurosi advokati Karimov Noriddin Nasirxanovichga Toshkent viloyati

adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-dekabrda berilgan TS 000023-raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya asosida berilgan advokatlik maqomi N.Karimov og'ir kasalligi sababli sog'ayunga qadar 6 (olti) oy muddatga to'xtatib turildi.

Advokatlar palatasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-maydagi qaroriga asosan Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 23-maydagi buyrug'i bilan advokat Karimov Mirza Mamaraimovichga 2022-yil 13-yanvarda berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi KS 000267-son reyestr raqamli litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi 6 oy muddatga ya'ni, 2023-yil 23-may kundan 2023-yil 23-noyabr kuniga qadar to'xtatildi.

8 AMALIYOTCHILAR MINBARI

ADABIY AYVON

Sarlavha – matn va reklamaga qiziqitiruvchi ibora. Aynan bu orqali biz matnni o'qish uchun vaqt sarflashimiz kerak bo'ladi. Psixologlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, 80 foiz obunachilar vaqtlarini faqat maqolalarning sarlavhalarinigina o'qishga sarflaydi.

Maqolalardagi xatoliklar

"Sariq" matbuot – bosma ommaviy axborot vositalari va iste'molchilar jamiyati madaniyatida eng keng tarqalgan hodisa ommaviy illyuziyalarning markaziga aylandi.

SARLAVHAGA QARAB SAYTNING OBRO'SINI BILSA BO'LADI...

O'zMU jurnalistika fakulteti o'qituvchisi Aziza AMINOVA:

Jinoyatlar va boshqa qonunbuzarliklar haqidagi sarlavhalar ko'pincha shov-shuv va g'aroyibli tufayli obunachilar e'tiborini tortadi. Ammo agar sarlavha juda ig'vogar bo'lsa yoki maqola mazmuniga mos kelmasa, bu nashrga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi va jurnalistlarga bo'lgan ishonchni kamaytirishi mumkin.

Jinoyatni batafsil yoritish kuzatuvchilarga vaziyatni tushunib va to'g'ri fikrlashga yordam beradi. Biroq axloq qoidalariga rioya qilish va vafot etgan shaxsning yaqinlaridan yoki gumon qilinuvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor qilmaslik muhim.

JINOYAT TAFSILOTLARINI EMAS, BUNDAN QANDAY XALOS BO'LISH KERAKLIGINI YORITISH KERAK

O'zMU jurnalistika fakulteti professori Yoqutxon MAMATOVA:

Sifatli matbuot hech qachon jinoyatga bog'liq materiallarni yoritmaydi, aksincha, bu kabi hodisalardan qanday qilib xalos bo'lish mumkinligi haqida yozadi. Sariq matbuot jinoyatga bog'liq yangiliklarni ommaga taqdim etishni oshirib yuboradi. Bu matbuot jinoyatga bog'liq sarlavhalari bilan insonlarni kayfiyati va tinchini buzish uchun xizmat qiladi. Ular jinoyat sodir etgan insonning keyingi hayotini va kuzatuvchilari qanday qabul qilganini o'ylamaydi. Maqsadi obunachilar sonini ko'paytirish xolos.

Afsuski, hozirgi kunda jinoyat haqidagi xabarlar ko'payib ketdi. Nahotki, internet rivojlanganidan keyin jinoyatlar ko'paydi, shu kunga qadar jinoyatlar sodir bo'lmaganmi, degan haqli savol tug'iladi.

SARLAVHAGA BOG'LIQ EMAS

O'zMU jurnalistika fakulteti dotsenti Mirbotir HUSANOV:

Qonunda jinoyat haqidagi ma'lumotlarni ommaga taqdim etish mumkin emas, deyilmagan. Ijtimoiy tarmoqlarda jinoyatlar haqida yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Ularni qabul qilish odamning psixologiyasiga bog'liq. Inson ongiga salbiy xabarlar o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin deb aytish noto'g'ri, chunki G'arb mamlakatlarida bu kabi hodisalar juda ko'p.

Jinoyatga qo'l urganlar soni hozirgi zamonga kelib ko'paygan, deb o'ylaymiz, biroq ular oldin ham bo'lgan, shunchaki jurnalistika rivojlanmaganligi bois hech kim uni yoritib, ommaga taqdim etmagan.

JAVOBGARLIK BOR

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi bosh maslahatchisi Salamat TUREMURATOV:

Shu o'rinda jinoyat va huquqbuzarlikka oid xabarlarni yoritishda jurnalistlar bir nechta xatolarga yo'l qo'yayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Deylik, qayerdadir qotillik ro'y berdi. Voqea joyi o'rganildi, gumonlanuvchi qo'lga olindi. U faqat gumonlanuvchi va hatto jinoyatchi bo'lgan taqdirda ham uni hali qotil deb atashga erta. Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, aybsizlik prezumpsiyasiga ko'ra, gumonlanuvchi uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmaguncha va sudning hukmi qonuniy kuchga kirmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Jurnalistlar xabarni keng ommaga tarqatayotgan vaqtida ismlarining bosh harfidan olib, A.B. shaklida yozadi. Gumonlanuvchining qaysi ko'chada, nechanchi uyda yashashi haqidagi ma'lumotlar ham oshkora berilmogda. Qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' gumonlanuvchining ismini bosh harflaridan bilib oladi. Sudlanuvchi keyinchalik aybi isbotlangan taqdirda ham aybsizlik prezumpsiyasi vaqtli buzilganidan ortidan ham shikoyat qilish huquqiga ega.

Sug'diyona YUSUBJONOVA,
O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi

Sarlavha – matn va reklamaga qiziqitiruvchi ibora. Aynan bu orqali biz matnni o'qish uchun vaqt sarflashimiz kerak bo'ladi. Psixologlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, 80 foiz obunachilar vaqtlarini faqat maqolalarning sarlavhalarinigina o'qishga sarflaydi.

Umidsiz bo'lma!

MASHHUR fan arbobi o'z ma'ruzasini qo'lga 100 AQSh dollari kupyurasini olib boshladi. Ma'ruza o'qilayotgan auditoriyada 200 nafar o'quvchi bor edi. U o'z o'quvchilariga: "Kim shu 100 dollarni qo'lga kiritishni xohlaydi?" – deb so'radi. Qo'llar birin-ketin ko'tarila boshladi. U: "Men sizlardan biringizga mana shu 100 dollarni beraman. Lekin uni berishdan oldin sizlarni bir sinamoqchiman", – dedi.

U dollarni g'ijimlay boshladi va so'radi: "Haliyam xohlaysizmi shu 100 \$ ni?". Qo'llar baralla ko'tarildi. "Yaxshi" – dedi u. Agar shunday qilsam-chi deya qo'lida 100 dollarni yerga tashlab, oyoq kiyimi bilan bosa boshladi, so'ngra uni qo'lga oldi. Pul esa kir va g'ijimlangan edi.

– Endi kim xohlaydi bu pulni? – deb so'radi.

Yana barcha qo'lini ko'tardi.

"Aziz do'stlar, hozir siz judayam qimmatli hayot darsini o'rgandingiz. Men pulga nisbatan nima qilgan bo'lsam ham, uni oyog'im ostiga tashlagan, g'ijimlagan bo'lsam ham, baribir siz uni qo'lga kiritish ilinjidasiz, chunki men pulning qiymatini tushirganim yo'q, u haliyam o'z qiymatiga ega bo'lib, haliyam 100 dollarligicha turibdi.

Hayot ham xuddi shunday. Juda ko'p marotaba biz o'z hayotimizda qoqilamiz – yiqilamiz, og'ir ahvolga tushamiz, kamsitilamiz, yer bilan yakson bo'lamiz... Shunda biz o'zimizdagi umidni yo'qotib, o'zimizni xuddi hech kimga kerak emasdek, bu hayotda arzimmas odamdek his qilamiz. Shuni unutmangki, biz bilan bog'liq nima sodir bo'lgan bo'lsa ham va kelajakda nima yuz beradigan bo'lsa ham, biz hech qachon o'z qiymatimizni Allohning oldida yo'qotmaymiz. Biz haliyam o'sha insonligimizga qolamiz. Biz Alloh oldida kirmizmi, tozamizmi, kiyimiz qanaqa, yiqilamizmi-qoqilamizmi, bir xildirmiz. Faqatgina yaxshiligimiz, e'tiqodimiz, hidoyatimiz va ibodat qilishimiz bilan bir-birimizdan farqlanamiz", – dedi.

Inglizchadan O'zDJTU Media va kommunikatsiya fakulteti talabasi Nilufar QOBILOVA tarjimasini

QAYTA ISHLASH – BU YECHIM EMAS

Angliyadagi Bristol universitetida atrof-muhit kimyosi bo'yicha tadqiqotchi doktor Sharlotta Lloydning fikricha, so'nggi besh-o'n yillikda plastik mahsulotlar kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalarida ko'rina boshladi. Global plastmassa ishlab chiqarish jami 8 milliard tonnaga yetdi – bu hozirda sayyoramizdagi har bir odamga 1 tonnaga to'g'ri keladi. 2060-yilga kelib plastik ifloslanish 3 baravarga oshishi mumkin.

Hozirgi hisob-kitoblarga ko'ra qayta ishlangan plastmassalarning atigi 10 foizi qayta ishlanadi. Yangi dalillar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlangan plastmassa yanada zaharliroq bo'lishi mumkin. Va bu ifloslanish xavfini bartaraf eta olmaydi.

Biz birinchi navbatda plastmassaga nima kirishi va qayta ishlangan mahsulotlar qanday ishlatilishini yaxshiroq tartibga solish haqida ko'proq o'ylashimiz kerak.

SANOATNING SIRI

Ma'lumki, plastik ifloslanish butun sayyoramizda keng tarqalgan. Ifloslanishni ekotizimga hamda inson salomatligiga ta'siri yuzasidan haqli xavotir mavjud.

Hisob-kitoblarga ko'ra, plastmassa ishlab chiqarishda 13 mingdan ortiq turli xil kimyoviy moddalar ishtirok etadi. Bu kimyoviy moddalar plastmassani qanchalik egiluvchan yong'inga, quyosh nuri ta'siriga chidamli bo'lishini ta'minlaydi. Lekin zarar yetkazmaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Plastmassalarda muntazam ravishda topiladigan ko'plab kimyoviy moddalar endokrin tizimni buzuvchi ta'sirga ega: ular tanamizdagi garmonlar ishiga xalaqit berishi mumkin. Bu bir qator sog'liq muammolariga, jumladan saraton xavfi va tug'ilish muammolariga olib kelishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar bizning tabiiy muhitimizga ham ta'sir qiladi.

Bir martalik foydalanadigan mahsulotlarga ham tobeligimizni kamaytirishimiz kerak. Ba'zida hayotda shunday plastmassa va shu kabi mahsulotlarga g'arq bo'lgandek tushulaman. Tijorat nuqtayi nazaridan bu foydalidir, biroq salomatlik uchun... Plastmassalar nafaqat sog'liq, balki ekologiyaga ham sezilarli darajada katta ta'sir ko'rsatishi barchamizga ayon. Shunday ekan, befarq bo'lmaylik. Har birimizning tashabbusimiz hal qiluvchi va muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti 2-bosqich talabasi Marjona ABDURAHMONOVA tayyorladi.

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADOLYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7877

7720107877

**Bosh
muharrir**

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorбек Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida. 2 bosma tabaq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy.

Tiraj – 3855
Buyurtma – 1607

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan naxda

1 2 3 4 5